



FARG‘ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2024-yil 27-sentabr

114-11-154-F/24

Buvayda tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28 va 73-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

1. Tumanda o‘tkazilishi rejalashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayrami tadbiriga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish uchun panolari tayyorlash, saxna bezaklari, gullar va boshqa kerakli jixozlar hamda bayramda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun **100,0** (yuz) million so‘m mablag‘ tuman mahalliy budjetining 2024-yil zaxira mablag‘lari hisobidan tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish, tuman G‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (Sh.Soliyev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish;

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisiga ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning belgilangan tartibda maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash, moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda G‘aznachilik bo‘limlariga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Maxsitaliev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



**IBRAGIMOV
BEXZOD.ODILJONOVICH**